



ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЙ И РАЗВИТИЯ

THE JOURNAL OF RESEARCH AND DEVELOPMENT

ТАДҚИҚОТ ВА ТАРАҚКИЁТ ЖУРНАЛИ

ISSN: 3030-3281. Volume I, Issue-11, (November) 2024

Journal homepage: <https://imfaktor.com/index.php/tjrd>

VAXOBOV Botirali Mixailovich

Namangan davlat universiteti

“Ijtimoiy fanlar” kafedrası
katta o‘qituvchisi

FARG‘ONA VODIYSI TURK SUBETNOSINING ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI

ANNOTATSIYA

Maqolada Farg‘ona vodisidagi turk etnografik guruhlarning kirib kelish bosqichlari. Vodiy turklaring etnik mansubligi haqida ilmiy qarashlar o‘rganilgan. Vodiydagи etnografik guruhlarning soni va joylashuvi tahlil qilingan.

Etnografik guruhlarning urug‘- qabilaviy bo‘linishi tarixiy-etnologik ma'lumotlar asosida yoritilgan. Turk haqidagi etnodemografik ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: etnik komponent, o‘troq aholi, etnografik guruh, etnik jamoa, o‘zlikni anglash, o‘zbek urug‘lari, tarixiy-etnografik material, etnik mansublik, aholini ro‘yxatga olish, alohida qabilaviy guruh, yarim ko‘chmanchi, mayda qavmlar

АННОТАЦИЯ

В статье рассмотрены этапы проникновение тюркских этнографических групп в Ферганскую долину. Изучены научные взгляды на этническую принадлежность тюроков.

Проанализировано количество и расположение этнографических групп в долине. На основе историко-этнологических данных объясняется родоплеменное деление этнографических групп. Представлены этнодемографические сведения о тюрах.

Ключевые слова: этнический компонент, оседлое население, этнографическая группа, этническая общность, идентичность, узбекские роды, историко-этнографический материал, этническая принадлежность, перепись населения, отдельная племенная группа, полукочевой народ, малые народы.

ANNOTATION

The article examines the stages of penetration of Turkic ethnographic groups into the Fergana Valley. Scientific views on the ethnicity of the Turks are studied. The number and location of ethnographic groups in the valley are analyzed.

The tribal division of ethnographic groups is explained on the basis of historical and ethnological data. Ethnodemographic information about the Turks is presented.

Key words: ethnic component, settled population, ethnographic group, ethnic community, identity, Uzbek clans, historical-ethnographic material, ethnicity, population census, separate tribal group, half nomadic, small peoples

O‘zbek xalqi tarkibidagi etnik komponentlaridan biri XX asr boshlariga qadar o‘troq aholi orasiga singib ketmagan holda yarim o‘troq turmush tarzi va urug‘chilik an’analarini saqlab qolgan etnografik guruhlardan biri ilmiy adabiyotlarda umumiy “turk” nomi bilan ma’lum. XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida “turk” etnonimi bilan o‘zlarini atab kelayotgan ushbu etnografik guruhning qaysi etnik jamoaga mansubligi masalasida tadqiqotchilar orasida turlicha qarashlar shakllangan [4, B.12].

Turklarning etnik mansubligi masalasidagi bunday yaxlit fikrning yo‘qligi, ma’lum darajada aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlarida ham o‘z aksini topgan. Masalan, 1897 hamda 1926- yillardagi aholini ro‘yxatga olish tadbirida turklarga “elat” deb qaralsa, 1917 va 1920- yillardagi statistik ma’lumotlarda esa ular “alohida qabilaviy guruh” sifatida e’tirof etiladi [17, B.24].

Turklarning O‘zbekistonidagi umumiyligi soni 1926- yilda taxminan 34610 kishi ekanligi qayd etilgan [18, B.72-76], ammo keyingi tadqiqotlarda ularning soni bundan-da ko‘proq bo‘lib, ular O‘zbekistonning sharqiy qismlarida joylashgan. Ular Farg‘ona vodiysi (Tojikiston bilan chegara bo‘ylab), Samarqand, Jizzax va Xo‘jand uyezdalarida va shuningdek, yuqori Qashqadaryoda ko‘p tarqalgan [16, B.6].

1897- yilda “turk”larning Farg‘ona vodiysidagi umumiyligi soni 14 441 nafarni, 1926- yilda esa 24 279 nafarni tashkil etgan. 1926- yilgi aholini ro‘yxatga olish materiallaridan yana shuni ko‘rish mumkinki, “turk”larning asosiy qismi 24 279 nafar turklardan 20 063 nafari Andijon va Farg‘ona viloyatlari hududida, 4 216 nafari esa Qirg‘izistonning O‘sh va Jalolobod viloyatlarida istiqomat qilganlar [21, B.6 -61].

Barcha ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi chorvador xalqlar kabi “turk”lar uchun ham urug‘- qabilaviy bo‘linish xarakterli bo‘lgan. O‘rta Osiyo hududida turklarning to‘rtta yirik uyushmasi - turklar, barlos, muso-bozori va kaltatoylar yashaganlar [16, B. 3-4].

Turklarning yirik guruhlari barlos va kaltatoylar bo‘lib, shu bilan birga, ularning turk nomi bilan atalgan guruhlari ham mavjud bo‘lgan. Turklar tarkibiga kiruvchi barlos, kaltatoy va turk kabi yirik qabilalar Farg‘ona vodiysida qadimdan istiqomat qilib kelgan. Turklarning yirik guruhlardan tashqari vodiyyda urug‘-qabila nomlari boshqa yerda uchramaydigan mayda bo‘linmalarini ham mavjud bo‘lgan. Ushbu guruhlarning nomlari Farg‘ona vodiysi tumanlaridagi toponimlarda kuzatish mumkin. Andijon viloyati tumanlarida ham “turk”larning qator mayda qavmlari mavjud bo‘lganligi ma’lum. Marhamat tumani hududida asosan turklarning barlos urug‘iga tegishli turkitug‘yon, sutxo‘r, yopolqbosh, supanlik, yortonlar, kistoko‘z, mirzalar, palavato‘pi va molto‘pi kabi mayda qavmlari qayd etilgan [4, B.12].

Xo‘jaobod tumani hududida S. S. Gubayevning fikricha, turklarning asosan barlos urug‘i yashagan. Ushbu tadqiqotchi tomonidan bu yerda quvaqalmoq, supanlik, yapaloqbosh, qistako‘z singari turklarning mayda qavmlari yashaganligi ham ko‘rsatib o‘tilgan [12].

Ma’lumki, “turk”larning katta bir guruhi Xo‘jand shahri tevaragida joylashgan O‘ratepada ham yashaganlar [10].

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, “turk”lar asosan vodiyning janubi-sharqiy hududlariga joylashib qolganlar.

Turklarga ilmiy adabiyotlarda O‘rta Osiyo hududiga Shayboniyxon bosqiniga qadar ancha avval kelib joylashib, turg‘unlashgan turk va turk-mo‘g‘ul qabilalarining avlodlari, deb qaraladi [16].

XV asrda Andijonning tog‘li xalqlari turk ekanligini o‘sha davrga oid manbalar ham tasdiqlaydi. Zahiriddin Muhammad Boburning Farg‘ona vodiysiga turklarning joylashuvi to‘g‘risida o‘zining “Boburnoma” asarida turkiy qabilalarning aksariyati to ko‘chmanchi o‘zbeklar kelgunicha bu yerda o‘troqlashib ulgurganligi haqida qayd etgan. “Boburnoma”da Andijonning janubiy va sharqiy tomonidagi tog‘li hududlarda istiqomat qiladigan ashpar, turukshar, chog‘roq turk qabilalari haqida ma’lumotlar uchraydi [1].

Turklarning o‘z qo‘ylarini boqish uchun vodiyning o‘rta qismidagi ekinlardan xoli keng tekisliklar va o‘simliklar bilan qoplangan adirlar joylashganliklari ularning ushbu hududda yaqinda vaqt davomida paydo bo‘lganliklaridan dalolat beradi. Farg‘ona vodiysi chegaralarida turklar Dashti Qipchoq o‘zbeklari tomonidan tekisliklar tog‘oldi va yuqori tog‘ tomonlarga siqib chiqarilgan edi. Turkarning ushbu guruhi Farg‘ona vodiysiga XVIII asr oxiri - XIX asr boshlarida ko‘chib kelganligi ularning bu yerda qarindoshlari ham bo‘lishi mumkinligi bilan izohlash mumkin [16].

Turklar uchun ko‘chmanchilik hududlariga O‘ratepa, Zomin, Surxondaryo, Toshkent va Farg‘ona vodiysi kirgan. Ehtimol, Farg‘ona vodiysi turklarning ko‘chib yuradigan hududlari, O‘ratepa, Zomin, Surxondaryo va Toshkent bilan bir qatorda umumiy tarqalgan joylaridan biri bo‘lishi mumkin [14].

Turklar o‘zlarining chorvalari bilan ushbu hududlardan Farg‘onaga ko‘chmanchilik qilib, keyin qaytib ketgan. Ammo, shunisi xarakterliki, yuqorida ko‘rsatilgan hududlardi ko‘plab turklar vodiyni o‘zlarining vatanlari deb biladilar. Masalan, G. F. Blagova va X. D. Doniyorovlarning ma’lumotlariga ko‘ra, Jizzax turklari Andijonni [5], A. F. Middendorf Samarqandda yashovchi turkbahrinlari Marg‘ilon atroflarini [19], M. F. Gavrilov O‘rtatepadagi turk-lo‘lakilar esa Xo‘jand atroflarini o‘zlariga vatan deb hisoblashlarini qayd etgan [10].

Turklar ko‘chishlar davrida qo‘ychilik va qishlash uchun qulay yerkarni tanlar, odatda, vodiydagi bunday hududlar adirlar (efirli o‘simliklar bilan qoplangan baland bo‘lmagan tepaliklar) va ekinlardan holi bo‘lgan adir oldi tekisliklardan iborat edi [11].

O‘troqlashayotgan turklar tabiiyki, o‘z navbatida podalari yaqinlari ko‘chmanchilik hududlarida joylashganlar. Turkarning joylashgan yerkarni asosan, Farg‘ona vodiysining g‘arbiy chegarasidan to sharqi chegarasigacha o‘rab turuvchi adirlar atrofida bo‘lgan. V. P. Nalivkin, Sh. I. Inogamov va Ya. R. Vinnikovlarning ma’lumotlariga ko‘ra, turklarning eng yirik qishloqlari Farg‘ona vodiysining asosan, janubi-sharqi qismini joylashgan [20].

Turklarning ayrimlarini esa mintaqaning o‘rta qismlarida ham uchratish mumkin edi [12]. Turkarning yuqorida nomlari ko‘rsatilgan joylardan boshqa hududlarda uchrashi ularning aksariyatini daryolarning yuqori qismidan kengroq yerkarga vodiyning yangi sug‘oriladigan yerlariga ko‘chishi bilan bog‘liq deyish mumkin.

Etnografik va statistik ma’lumotlarga qaraganda XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida turklar yarim o‘troq turmush tarzini saqlab, chorvachilik va dehqonchilik xo‘jaligini birga olib borganlar.

Turklarning o‘troqlashuvining asosiy sabablaridan biri bu o‘zbeklardi kabi ko‘chmanchilarining jamoa o‘rtasidagi tabaqalashuvi va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq edi. Ayni vaqtida, ularning ma’lum qismi uzoq asrlar davomida o‘zining etnik jihatlarini saqlab qolgan va ushbu xususiyatlari bilan yon-atrofdagi boshqa etnoslardan farqlanib turgan.

Turklar o‘troqlashish natijasida o‘troq aholiga xos xo‘jalik turlari bilan shug‘ullana boshlaganlar. Masalan, O‘sh viloyati Jalolobod va O‘zgan tumanlarida turklar o‘troq aholi ta’sirida guruch yetishtira boshlaganlar.

Hozirgi kunda turklarning aksariyati qoraqalpoq va uyg‘urlar singari o‘zlarining tillarini yo‘qotib, hatto o‘z oilalarida ham o‘zbek tilida so‘zlashadilar. Turkarni til jihatidan ma’lum qismlarida dialektlar saqlanib qolganligini hisobga olinmasa, ularni o‘zbek yoki qirg‘izlarga qo‘shish mumkin. Turklar mahalliy aholi o‘zbeklari orasida o‘zbek, tojiklari orasida tojik, qirg‘izlari orasida qirg‘iz tillarini qabul qilganlar va shu bilan birga, o‘z dialektlarini ham ma’lum darajada saqlab qolganlar [6].

Ammo, shuni alohida qayd etish ham kerakki, Andijon va Farg‘onada istiqomat qiluvchi turklarning aksariyati o‘zbek tilida so‘zlashadi. Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani Katta Turk va Oqjar qishloqlarida aholidan til farqlar haqida surishtirilganda axborotchilar tomonidan quyidagi misol keltirildi “turkina”, “keldina”, “bordinami” [3].

Turklar o‘zlarining qo‘snilari o‘zbeklardan moddiy va ma’naviy madaniyat elementlarini o‘zlashtirganlar. Turkarning o‘zbek va qirg‘iz aholisi bilan yaqinlashuv jarayoni faol tarzda kechishiga qaramay, to‘liq holda ular bilan birlashib ketmagan.

O‘z navbatida shuni ham ta’kidlash joizki, Farg‘ona vodiysi turklari genealogiyasini aniqlash hozircha ancha mushkul. XIX asrda boshlangan o‘zbeklar bilan konsolidatsion jarayonlar natijasida urug‘-qabilaviy bo‘linishlarining yo‘qolib borishi tobora kuchayib borgan. Axborotchilar faqatgina oilaviy-qarindoshlik guruhlari nomlari, ayrim hollarda esa ko‘pincha barloslar va kaltatoy qabilalariga oidligini biladilar, xolos [2].

Xulosa qilganda, “turk” etnik jamoalari nomi ostida mahalliy aholi etnik rang-barangligini birmuncha ko‘paytirgan bo‘lsalar ham, lekin uning etnik tarkibini tubdan o‘zgartirib yubormagan. Ushbu etnik guruh shakllangan o‘zbek xalqining tarkibiga kelib qo‘shilgan navbatdagi etnik komponent edi, xolos. Ular Farg‘ona vodiysi aholisining turmush tarzi, an’analari, madaniyati va xo‘jalik faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan yangi tipdagi madaniy qatlama hosil qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. - Т., 2008.
2. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati, Dang'ara tumani, Kichik Turk qishlog'i, 2022- yil.
3. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati, Dang'ara tumani, Oqjar qishlog'i, 2021-yil.
4. Абдуллаев У. С. Фаргона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX - XX аср бошлари). - Т.: Янги аср авлоди, 2005.
5. Благова Г. Ф., Данияров Х. Д. Говоры «тюрков» Узбекистана в отношениях к языку староузбекской литературы // Вопросы языкоznания. - 1966. - № 6. - С. 92.
6. Винников Я. Р. Современное расселение народов и этнографический групп в Ферганской долине / Среднеазиатский этнографический сборник. Т. XLVII. Вып. II. - М., 1959.
7. Всесоюзная перепись населения 1926 г. - М.: Изд-во ЦСУ Союза ССР, 1928. Т. VIII. Т. XV.
8. Всесоюзная перепись населения 1926 года. Т.VIII. Казахская АССР. Киргизская АССР. - М., 1928.
9. Всесоюзная перепись населения 1926 года. Т.XV. Узбекская ССР. - М., 1928.
10. Гаврилов МФ. Материалы к этнографии «тюрк» Ура-Тюбинского района // Труды САГУ. Серия II. Orientalia. Выпъ. 2. - Т., 1929.
11. Губаева С. С. Население Ферганской долины в конце XIX - начале XX в. (этнокультурные процессы). - Т.: Фан, 1991.
12. Губаева С. С. Этнический состав населения Ферганы в конце XIX - начале XXв (По данным топономии). - Т., 1983.
13. Иногамов Ш. И. Этнический состав населения и этнографическая карта Ферганской долини в границах УзССР. Дис... канд. ист. наук. - Т., 1959.
14. Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Узбекистана и Таджикистана. - М., 1976.
15. Кармышева Б. Х. О некоторых древних тюркских племенах в составе узбеков (по этнографическим данным) / Материалы XXV Международного конгресса востоковедов. - М., 1960.
16. Кармышева Б. Х. Этнографическая группа «тюрк» в составе узбеков (историко - этнографические данные) // СЭ, 1960, № 1.
17. Материалы Всероссийских переписей. Вып. IV. Сельское хозяйство Ферганской области по материалам переписи 1917 г. - Т., 1920.
18. Материалы по районированию Средней Азии. Кн. I. Территория и население Бухары и Хорезма. Ч. I. Бухара. Ч. II. Хорезм. - Т., 1926. Ч. I.
19. Миддендорф А. Ф. Очерки Ферганской долины. - СПб., 1882.
20. Наливкин В. П. Краткая история Кокандского ханства. - Казань, 1886.
21. Первая всеобщая перепись населения Российской империи 1872 г. Т. LXXXIX. Ферганская область. - СПб., 1904.
22. Первая Всеобщая перепись населения Российской империи 1897 года. Т.89. Ферганская область. - СПб., 1904.